



**OLTIARIQ TUMANING QISHLOQ XO’JALIGI. DEHQONCHILIK VA
CHORVACHILIK**

Uktamov Urayimjon Shavkatjon o‘g‘li
Andijon davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi
Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi
Andijon davlat Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Oltiariq tumaning qishloq xo’jaligi, dehqonchiligi, chorvachiligi va fermer ho’jaligi iqtisodiyoti, mahsulotlarining hajmi, o’sish suratlari va xo’jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi kabi ma’lumotlar keng yoritilgan. Shu bilan birga qishloq ho’jaligida band aholi haqidagi ma’lumotlarga ham to’xtalib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *Oltiariq tumani, qishloq xo’jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, qora mollar, mlrd.so’m, mahsulot hajmi, o’sish surati, band aholi.*

**СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО АЛТЫАРЫКСКОГО РАЙОНА. ЗЕМЛЕДЕЛИЕ И
ЖИВОТНОВОДСТВО**

Аннотация: В данной статье широко освещена такая информация, как сельское хозяйство, крестьянство, животноводство и фермерское хозяйство Алтыарыкского района, объемы продукции, картины роста и удельный вес скота и птицы в количестве категорий хозяйств. При этом были затронуты и сведения о населении, занятом в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: Алтыарыкский район, сельское хозяйство, фермерское хозяйство, животноводство, черные скоты, млрд.сум, объем производства, картина роста, занятое население.

**AGRICULTURE OF THE ALTYARYK REGION. AGRICULTURE AND ANIMAL
HUSBANDRY**

Abstrakt: This article widely covers such information as agriculture, peasantry, animal husbandry and farming in the Altyaryg district, production volumes, growth patterns and the share of livestock and poultry in the number of farm categories. At the same time, information about the population employed in agriculture was also affected.

Key words: Altyaryk region, agriculture, farming, livestock breeding, ferrous goods, billion soums, production volume, growth pattern, employed population.

Kirish: Keyingi yillarda qishloq xo’jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Davlat xarid narxlari qariyb 3 barobarga



ko'paytirilgani natijasida manfaatdorlik oshdi. Paxtachilik va g'allachilik hashar emas, chinakam daromad manbaiga aylandi.

Yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish maqsadida 76 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 6-sentabr kunidagi qishloq xo'jaligini 2020-2023 yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan strategiya ishlab chiqilgan. Bu iqtisodiyotimizning asosiy o'sish nuqtasi, "drayveri" bo'ldi. Ming-minglab ish joylari yaratildi, odamlarning daromadi oshdi[6].

Asosiy qism: Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Farg'onan viloyatining 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi 1963,9 mlrd. so'mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil qildi. Viloyat qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Oltiariq tumanini ulushi 8,1 %ni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo'jaliklar toifalari bo'yicha dehqon (shaxsiy yordamchi xo'jaliklar) 66,2 foiz, fermer xo'jaliklari 32,8 foiz, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar 1 foizni tashkil etadi[4].

Dehqonchilik: 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1300,2 mlrd. so'mni yoki 2021-yilning shu davriga nisbatan 106,1 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 66,2 %ni tashkil qildi. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining salmog'i yuqori bo'lmoqda, jumladan jami etishtirilgan kartoshkaning 65,8 %i, sabzavotning 71,3 %i, uzumning 90,4 %i va mevaning 45,0 %i ular hissasiga to'g'ri keldi[2].

*Xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2022-yil yanvar-sentabr)*

	<i>Barcha toifadagi xo'jaliklar Jami</i>		<i>Shu jumladan:</i>					
			<i>Fermer xo'jaliklari</i>		<i>Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari</i>		<i>Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>
Don-jami	39735	92,6	39422	92,6	13	10,0	300	143,5
shu jumladan: boshqoli don	37827	94,0	37527	93,7	-	-	300	143,5
shundan: bug'doy	37827	94	37527	93,7	-	-	300	143,5
Makkajo'xori don uchun	1240	161,2	1232	160,4	8	615,4	-	-


Don-jami	39735	92,6	39422	92,6	13	10,0	300	143,5
shu jumladan: boshqoli don	37827	94,0	37527	93,7	-	-	300	143,5
shundan: bug'doy	37827	94	37527	93,7	-	-	300	143,5
Makkajo'xori don uchun	1240	161,2	1232	160,4	8	615,4	-	-



sholi	288	74,6	288	108,3	-	-	-	-
Dukkakli don	380	25,1	375	25,0	5	55,6	-	-
Kartoshka	12257,7	132,0	4113	322,3	8069,7	100,7	75	200,0
Sabzavotlar, jami	94510,3	105,3	26133,5	113,8	67346,8	100,8	1030	6866,7
Poliz, jami	4515	245,1	4015	264,1	-	-	500	166,7
Mevalar, jami	15216,8	104,4	8302	III,0	6854,9	97,0	60	166,7
Uzum	41583,6	109,2	3954	316,6	37583,6	102,1	46	-
Paxta xom-ashyosi	15019	95,0	14406	91,1	-	-	613	-

2022-yilning yanvar-sentabr oylari davomida Oltiariq tumanida 94510,3 tonna savzavot yetishtirilgan bo'lib, Farg'ona viloyatida yetishtirilgan savzavot hajmidagi ulushi 11,5 %ni tashkil etdi. Yetishtirilgan savzavot hajmining 71,3 %i dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklari xissasiga to'g'ri keladi[5].

Farg'ona viloyati bo'yicha 2022-yil yanvar-sentabr oylari davomida yetishtirilgan savzavot hajmi, % hisobida



Chorvachilik: Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'yinishiga imkon yaratdi. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 649,1 mld. so'mni yoki 2021-yilning shu davriga nisbatan 103,9 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 33,1 %ni tashkil etdi. 2022-yilning 1-oktabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni 74868 boshga (102,5 %ni), shu jumladan sigirlar 36 587 boshga (100,6 %ni), qo'y va echkilar 47 469 boshga (101,5 %ni), parrandalar 265 703 boshga (100,2 %ni) tashkil qildi. Umumiyligi bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 89,9 % ni, fermer xo'jaliklarida 9,6 % ni, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida 0,5 % ni tashkil etdi[2].

Fermer xo'jaliklari. 2022-yilning yanvar-sentabr oylari davomida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 525,3 mld. so'mni tashkil



qilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 26,7 %ga yetdi. 2022-yilning 1-oktabr holatiga fermer xo'jaliklarida 7 202 bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 2 615 bosh sigir, 4 685 bosh qo'y va echkilar, 175 bosh ot, 17 794 bosh parrandalar mavjud. Oltiariq tumanida faoliyat yuritayotgan barcha yo'nalishdagi fermer xo'jaliklari

1-oktabr holatiga soni 844 tani tashkil etadi[1].

Xulosa: Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilishi, budjet mablag'larining asosiy qismini yerlearning unumdorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, ilm-fanni rivojlantirishga sarflash asosiy maqsadga aylantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi va shunday ham qilib kelinmoqda. Ilmiy-tadqiqot institutlarida ertapishar mahsulot turlari va hududlar iqlimiga mos chorva zotlarini yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish ishlari ham boshlandi va davom etmoqda. Umuman olganda, yangi strategiya qishloq xo'jaligiga bozor mexanizmlarini joriy qilib, ilmiy asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksportni ko'paytirish, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulotlar hajmini bir necha barobarga oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oltiariq tumani Mehnat resurslari balansi 2022-yil yanvar-sentabr balansi
2. Oltiariq tumanining statistik axborotnomasi. 2022-yil yanvar-setabr.
3. Tojiyeva Z. Iqtisodiy va demografik statistika. O'quv qo'llanma. –T., 2002.
4. Z.N. Tojiyeva , F.A. Do'smonov. „Demografiya” Toshkent- 2020.
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. © 2008-2023 «Gazeta.uz»